


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

Namangan viloyati xalq ta'limi boshqarmasi

Chortoq tumani xalq ta'limi bo'limi Chortoq tumanidagi –maktabgacha ta'lim
muassasasi kichik guruh tarbiyachisi

Mamatova Xaytoy



Chortoq shahri 2006-yil

Mazkur qo'llanma maktabgacha ta'lim muassasasining metodik kengashining 2005 yil 5 noyabrda yig'ilishida muhokama etilib, amaliyotda qo'llash uchun tavsiya etilgan.

Mujassam mashg'ulot:

Mavzu: Qomusimiz-nomusimiz/

Maqsad: Bolalarni tevarak atrof va tabiat haqidagi bilimlarini kengaytirish, O'zbekiston bayrog'i, gerbi, madhiyasi haqida bilimlarini mustaxkamlash, o'qitilgan vataniga mehr-muhabbatini oshirish, O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi qonunlarini tushuntirish, konstitutsiyaga xurmat tuyg'usini uyg'otish, ranglardan to'g'ri foydalanib bayroq chizish.

Mashg'ulot borishi: Aziz bolajonlar bugun mashg'ulotimiz O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga bag'ishlanadi. Hammamiz hozir O'zbekiston Respublikasi madhiyasini kuylaymiz.

Hamma bolalar madhiya kuylashadi.

Tarbiyachi: barakalla bolalar mana shu madhiyamizni kim yozgan?

A.Aziz: A.Oripov so'zi, M.Burhonov musiqasi.

Tarbiyachi: Juda ham yaxshi. Qani bir eslab olaylikchi, 1991 yil 31 avgustda nima bo'lgan?

B.Aziz: O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingan.

Tarbiyachi: Barakalla, juda ham to'g'ri. Vatanimiz haqida she'rlar bilasizlarmi?

Nuriddin: O'zbekiston she'ri

Holida: O'zbekiston she'ri.

Begoy: Chortog'im she'ri.

Tarbiyachi: Vatan haqida she'rlaringiz bilan meni xursand qildingiz. Bolajonlar vatan haqida qo'shiq ayta olasizlarmi?

Bolalar o'zbekiston qo'shig'ini kuylashadi.

Tarbiyachi: 1991 yil 18 noyabrda nima qabul qilindi?

Oydina: O'zbekiston bayrog'i qabul qilindi.

Tarbiyachi: Bayroq necha xil rangda?

Nursulton: 4 xil rangda

Tarbiyachi: 1992 yil 2 iyunda nima qabul qilindi?

Aziz: O'zbekiston tamg'asi qabul qilindi.

Tarbiyachi: Balli bolalar, kim ushbu tamg'ani tariflab beradi?

Durdona: Tamg'a she'ri.

Tarbiyachi: Bolajonlar 1992 yil 8 dekabrda nima bo'lgan?

Jahongir: O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilingan.

Juda ham to'g'ri, shundan beri biz har yili 8-dekabrni bayram qilamiz. Bolajonlar biz bundan buyon konstitutsiyani bilishimiz va uni hurmat qilishimiz kerak. Chunki konstitutsiya ham vatanimiz ramzi hisoblanadi. Konstitutsiyada sizni so'g'lom, baquvvat o'sishingiz haqida g'amxo'rlik qilish to'grisida yozilgan. Demak konstitutsiyamiz biz uchun aziz va qadrlidir. Konstitutsiya bizni yaxshi yashashga, vatan uchun xizmat qilishga undaydi. Qani bolajonlar, konstitutsiyamizni bir varaqlab olaylikchi:

Bolalar: O'zbekiston mustaqil respublika.

Oydina: O'zbekistonning davlat tili o'zbek tilidir.

Nursulton: O'zbekiston o'zining bayrog'i, tamg'asi va madhiyasiga ega.

Sevara: O'zbekiston poytaxti Toshkent shahridir

Rustam: fuqorolar atrof-muhitga extiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlarlar.

Dilshoda: O'zbekiston Respublikasi o'z moliya va pul kredit tizimiga ega.

Sevara: Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

Rahmat bolajonlar endi sizlar bilan O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ini chizamiz. Bolalar rasm chizishga taklif qilinadi va ularning ishlari kuzatib boriladi. Qiynalgan bolalarga yordam beriladi.

Rahmat bolalar, juda chiroyli chizdingiz. Endi hammamiz "Askarmiz" qo'shig'ini aytamiz.

Tarbiyachi: Rahmat bolajonlar deb, ob-havo haqida savol-javob o'tkazadi.

Tarbiyachi: Hozir o'lkamizda qaysi fasl?

Aziz: Qish fasli.

Tarbiyachi: Qish faslida qanday o'zqarishlar bo'ladi?

Dilshoda: Sovuq bo'ladi, qor yog'adi.

Tarbiyachi: Juda yaxshi, hammamiz birgalikda ob-havoni kuzatamiz.

2-mashg'ulot

Mashg'ulotning nomi musiqa

Mavzu: Musiqa mashg'ulotlarida milliy cholg'u asboblariidan foydalanish.

Maqsad: Bolalarga o'zbek milliy cholg'u asboblariini turlarga bo'lib o'rgatish, ularni bir-biridan farqlay olishga o'rgatib borish. O'z milliy qadriyatlarimizni ulrning ongiga singdirib borish.

Xalq og'zaki ijodini laparlar, yallalar aytishga o'rgatib borish.

Qo'shiqni musiqaqa moslab ayta olishga, kuylarni bir-biridan farqlab topa olishga o'rgatib borish. Boshqa mashg'ulotlardan olgan bilim va malakalarini rivojlantirish va takrorlab mustahkamlab borish.

Kerakli johozlar: Cholg'u asboblariini asli va suratlari, mashg'ulot ishlanmasi.

Mashg'ulotning borishi:

Bolalar musiqa sadolari ostida xonaga kirib kelishadi.

Tarbiyachi: Qani bolalar o'ringizga o'tirib olinglarchi, juda yaxshi. Bolalar hozir biz qanday mashg'ulot o'tamiz?

Bolalar javob berishadi.

To'g'ri rahmat. Musiqa mashg'ulotlarini o'tamiz. Bolalar mana bu yoqqa qaraglarchi, bu nimalar ekan.

Bolalar javob berishadi.

To'g'ri bu musiqa tovushlari, endi mana bunisichi?

_____ yaxshi bu musiqa kaliti. Necha musiqa kalitlari bor ?

Bolalar javob berishadi. 7 ta.

Yaxshi, o'tgan galgi musiqa mashg'ulotimizda qaysi qo'shiqni kuylaganmiz ? Bolalar piyoda askarmiz degan qo'shiqni kuylaganmiz deya javob berishadi. Hozir shu qo'shiqni takrorlab olamiz. Avval ovozimizni sozlab olamiz.

Do-re-mi-fa-sol-lya-si, si-lya-sol-fa-mi-re-do, bolalar bilan qo'shiqni birga ijro etiladi. Bolalar rahmat, sizlar qo'shiqni juda ham yaxshi ijro etdinglar. Endi musiqali topishmoq topamiz. Marhamat tinglang, musiqa chalinadi, bolalar uni tezkorlik bilan topadilar. Voy bolajonlar sizlar juda ham topqir ekansizlar, rahmat sizlarga. Bolalar endi menga qaraglarchi, musiqa asboblariini turlarga bo'lib o'rganamiz. Biz uni 3 turga bo'lib olamiz.

1. Zarbli asboblari

2. Torli asboblari

3. Dam bilan chalinadigan asboblari.

Zarbli asboblarga doira, nog'ora, do'mra kiradi. Torli asboblarga esa tor, tortilgan asboblari ya'ni, rubob, dutor va boshqalar kiradi. Dam bilan chalinadigan asboblarga esa nay, surnay, karnay kiradi.

Mana endi aytinglarchi musiqa asboblariini necha turga bo'ldik?

Bolalar javob berishadi.

Judayam to'g'ri, mana endi mana bu suratlarining ichidan menga torli asboblarni ko'rsating. Bolalar birma-bir chiqib, torli, zarbli, damli musiqa asboblarini farqlab aytadilar.

Rahmat bolajonlar, esda juda ham yaxshi saqlab qoldinlar. Hozir bolalar, biz o'tgan mashg'ulotlarimizda turli laparlar ham yod olganmiz to'g'rimi? Lapar aytishni xoxlaysizlarmi bolajonlar? Bizning momolarimiz, onalarimiz, buvijonlarimiz qadimdan turli laparlar aytib kelishgan, bu laparlarni so'zlarini xalq o'zi to'qigan va kuyga solib kuylagan. Mana bizgacha ham yetib keldi. Endi biz bu laparlarni mahorat bilan kuylab yuramiz va o'rganamiz. Marhamat hozir birgalikfa kuylaymiz. Bolalar laparlarni aytib raqsga tushadilar. Qoyil bolajonlar juda chiroyli kuyladingiz va raqsga tushdingiz. Endi musiqa o'qituvchingiz kuy chaladilar, sizlar esa mana bu qo'shiqlar va shiqildoqlar yordamida kuy chiqarasizlar. Bolalar chalingan kuy jo'rligiga jo'r bo'lishadi. Rahmat bolalar kuyni juda chiroyli ijro etdingiz. Bugungi mashg'ulotda hammangiz ham juda faol va yaxshi ishtirok etdingiz, bining uchun sizlarga rahmat. Doimo barcha mashg'ulotlarda shunday qatnashinglar.